

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

“SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Allanbaev R.O.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpoq sahna san’ati tarixida muhim o‘rin tutgan “Suymaganga suykalma” musiqali komediyasi tahlil qilinadi. Asarning g‘oyaviy mazmuni va obrazlar tizimi o‘rganilib, unda hayotiy voqeliklar, insoniy munosabatlarning nozik jihatlari, kulgili va achchiq haqiqatlar musiqiy hamda hajviy vositalar orqali qanday aks ettirilgani ko‘rsatib beriladi. Tahlil spektakldan keltirilgan parchalar misolida asoslab berilgan.

Kalt so‘zlar: teatr, musiqali drama, komediya, g‘oya, mazmun, obraz, voqea.

Аннотация: В данной статье анализируется музыкальная комеди «Сүймегенге сүйкелме» занимающая важное место в истории каракалпакского сценического искусства. Изучается идейное содержание произведения и система образов, показывается, как жизненные реалии, тонкие аспекты человеческих отношений, смешные и горькие истины отражаются через музыкальные и сатирические средства. Анализ обоснован на примере отрывков из спектакля.

Краткие слова: театр, музыкальная драма, комедия, идея, суть, образ, событие.

Abstract: This article analyzes the musical comedy "Su'ymegenge su'ykelme" which holds a significant place in the history of Karakalpak stage art. The work's ideological content and the system of characters are studied, as well as how life realities, subtle aspects of human relationships, humorous and bitter truths are reflected through musical and satirical means. The analysis is based on excerpts from the play.

Keywords: theater, musical drama, comedy, idea, essence, image, event.

Kirish. Sahna san’atining eng ta’sirchan janrlaridan biri bo‘lgan musiqiy drama asrlar davomida insoniyatning eng chuqur tuyg‘ulari, orzulari, kurashlari va yutuqlarini aks ettirib kelgan. U o‘tmishdagi qahramonlik dostonlari va afsonaviy syujetlarga murojaat etish bilan birga, zamonaviy hayotiy voqealarni va jamiyatning dolzarb muammolarini ham badiiy tahlil qilishga qodir universal vositadir.

Asosiy qism. Qoraqalpoq sahna san'atida o'ziga xos o'rin tutgan "Suymaganga suykalma"¹⁰ musiqali komediyasi xalq maqolida ifodalangan donolikni sahnaviy talqin orqali tomoshabinga yetkazuvchi yorqin asardir. Ushbu komediya o'zida hayotiy voqealarni, insoniy munosabatlardagi nozik jihatlarni, ba'zan esa kulgili, ba'zan esa achchiq haqiqatlarni musiqiy va hajviy vositalar orqali aks ettiradi.

Asarning asosiy o'ziga xosligi uning komediya janriga mansubligi bilan belgilanadi. Bu janr mualliflarga dolzarb ijtimoiy va maishiy muammolarni, xarakterlardagi nuqsonlarni, shaxsiy va oilaviy ziddiyatlarni yengil hazil, satira va parodiya orqali ko'rsatish imkonini beradi. "Suymaganga suykalma" komediyasida ham ana shunday yondashuv kuzatiladi. Unda qahramonlarning kulgili vaziyatlarga tushishi, ularning fe'l-atvoridagi kamchiliklar, orzular va reallik o'rtasidagi nomuvofiqliklar tomoshabin kulgisiga sabab bo'ladi, shu bilan birga ularni chuqur mushohadaga chorlaydi.

Musika bu komediyada zavq bag'ishlash bilan birga, hajviy effektini kuchaytiruvchi muhim element hisoblanadi. Quvnoq kuy va qo'shiqlar spektaklga dinamiklik bag'ishlaydi, qahramonlarning hissiy holatini ifodalashga yordam beradi va ba'zi kulgili vaziyatlarni yanada yorqinroq ko'rsatadi. Musiqiy partiyalar asarning umumiy ohangini belgilaydi va uning janriy xususiyatini to'laqonli namoyon etadi.

"Suymaganga suykalma" musiqali komediyasi orqali tomoshabinlar oddiy insonlar hayotidagi o'ziga xos vaziyatlarga guvoh bo'ladilar. Asar ko'ngilochar xususiyatga ega bo'lishi bilan birga, insonlarga o'z xatolaridan kulishni, hayotga yengilroq qarashni, munosabatlarda samimiy bo'lishni va xalq donoligiga quloq solishni o'rgatadi. Bu asar qoraqalpoq sahna san'atida zamonaviy mavzularni yoritishda musiqiy komediya janrining imkoniyatlarini yaqqol namoyish etadi va o'zining badiiy qiymati bilan bugungi kun tomoshabini uchun ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Qahramonlar xarakterining ochilishi:

Oysanam: Uning qo'shiqlari va Avaz bilan suhbatlari orqali uning nafaqat sevuvchi, balki o'z baxti uchun kurashuvchi irodali qiz ekanligi namoyon bo'ladi.

Avaz: Uning jasur xarakteri yanada yorqinlashadi. U sevganini qutqarish va adolat uchun kurashishga ham tayyor.

Ko'chkinboy: Avaz va Oysanamning ko'rishganini bilishi bilan uning shafqatsiz va qizini mol deb biladigan ota obrazi yana bir bor tasdiqlanadi. Uning

¹⁰ Teatr arxividan olingan asar pyesasi asosida tahlil qilinadi.

gʻazabi, Gulsanamga nisbatan qoʻpol munosabati uning salbiy xarakterini kuchaytiradi.

Gulsanam: Uning zaif, ammo ich-ichidan qiziga achinadigan ona obrazi chuqurlashadi. U Koʻchkinboyning zulmi ostida ezilgan, lekin “Qizdın malı qırq kúnlik.

Orolboy: Uning yoshlarning himoyachisi, adolatparvar va mard yigit ekanligi yaqqol namoyon boʻladi. U Koʻchkinboyning zulmiga qarshi chiqib, “El anʼanasini buzishga haqqing yoʻq” deydi. Keyinchalik esa Avazga Gʻoʻdaloqni “masqara qilish” rejasida yordam beradi.

Gʻoʻdaloq: Uning ochkoʻz, johil va oʻz maqsadiga erishish uchun har qanday hiyladan foydalanishga tayyor boʻlgan boy obrazining komik jihatlari oshkor boʻladi. Uning Oysanamga nisbatan behayo intilishlari va Doʻshim tomonidan masxara qilinishi kulgili vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

“Suymaganga suykalma” musiqali komediyasining birinchi akti asar gʻoyasini ochib beruvchi, konflikt zaminini yaratuvchi va qahramonlar xarakterini belgilab beruvchi muhim sahnalarni oʻz ichiga oladi. Aktning asosiy maqsadi - kambagʻal oila va boy-zulmkor Gʻoʻdaloq oʻrtasidagi ziddiyatni, muhabbat va boylik oʻrtasidagi kurashni boshlab berishdir. Bunda sahna tasviri va muhit yaratilishini akt boshlanishida berilgan sahna tasviri yaqqol tasavvur qildiradi: “Qara úydiń aldına qurılǵan shertek. Qara úydin sırtı kórinedi. Dógeregi jıńǵıl qora. Ádettegi jarlı diyxannıń úyi”. Bu tasvir kambagʻallikni, oddiy dehqon turmushini ifodalaydi. “Qora uy” soʻzi esa shu oilaning moddiy holatining ogʻirligini, qora kunlarini ham ramziy maʼnoda anglatishi mumkin.

“Shertektiń astında bir múyeshte mardan qurıwlı tur. Úydiń sırtında hár turli terekler: jiyde, torańǵıl, jabayı ósken mayda terekler. Saxna ashılǵanda Aysánem qosıq aytıp shiy toqıp atırǵan boladı”. Bu detallar sahna vizualligini kuchaytirib, tabiatning oddiy, biroq goʻzal bir burchagida voqealar sodir boʻlayotganini koʻrsatadi.

Akt Oysanamning qoʻshiq aytishi bilan boshlanishi uning ijodiy, orzularga boy va musiqaga moyil xarakterini koʻrsatadi. Uning qoʻshigʻi sahna uchun musiqiy fon boʻlishi bilan birga, uning ichki dunyosining ifodasidir. Asarda berilgan “Jaz kelse bolar nur jáwlan, Gúller óser nárwan – nárwan, Shaqaları álwan – álwan, Jazdın sáni gúl shıraylı”. Bu satrlar Oysanamning yorugʻlikka, goʻzallikka intilishini, hayotga pozitiv nigoh bilan qarashini koʻrsatadi. Uning yoz va gullar orqali orzulari mujassamlashgan.

“Jaz kelse bolar nur jáwlan, Gúller óser nárwan – nárwan, Shaqaları álwan – álwan, Jazdın sáni gúl shıraylı”. Bu misralar Oysanamning orzu-umidlari sodda va

samimiy ekanligini, oila qurish, sevimli insoni bilan birga baxtli yashashni istashini anglatadi. “Yigit bilan qiz chiroyli” iborasi uning dunyoqarashida insoniy munosabatlar, juftlikdagi go‘zallik ustuvor ekanligini ko‘rsatadi.

“Írgalsa baǵdıń shaqası, Bolsa oyın – tamashası, Qol uslasıp qurbı menen, Erkin júrgen sol shıraylı”. Bu misralar Oysanamning erkinlikka intilishini, sevgan insoni bilan hech qanday to‘siqsiz, qo‘l ushlashib, erkin yashashni xohlashini aks ettiradi. Bu uning keyinchalik Go‘daloq zulmiga qarshi kurashishiga asos bo‘ladi.

Go‘daloq, To‘ra va Sherozning paydo bo‘lishi aktning burilish nuqtasi bo‘lib, asosiy konfliktning boshlanishini bildiradi. Bu Go‘daloqning Oysananga e‘tibor berib qarashida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Sherozning “G‘odalaq, kózińiz qanday ótkir, gawhardı tez tanıy qoyasız - aw” deya G‘o‘daloqni maqtab murojaat qilishi G‘o‘daloqning Oysananga qiziqib qolganiga ishora qiladi. G‘o‘daloqning “Kóshkinbay nege qarızın tólemey júr desem... nazı bar eken á...” degan so‘zlari uning ochko‘z, xudbin va insoniy qadriyatlarni mol-mulk bilan o‘lchaydigan xarakterini ochib beradi. Uning nazarida, qizning go‘zalligi “qarz” evaziga “sotib olinadigan” narsa.

Gulsanam va Ko‘chkinboyning G‘o‘daloq bilan bo‘lgan dialogi o‘sha davrdagi kambag‘allarning og‘ir ahvolini, boylarning zulmini ko‘rsatadi.

Gulsanamning “Kechikib kelibsiz” va “o‘tirib choy - suv iching” deya G‘o‘daloqqa salom berishi, kambag‘allarning boylarga nisbatan majburiy hurmatini, ularning qo‘liga qarab qolganliklarini ko‘rsatadi.

Go‘daloqning “Ashlıqta alǵan akkurpeshtiń mazasın ummıtıńız ba?” deya qarzдорlikni eslatishi, qarzning kambag‘allik tufayli yuzaga kelganini va boylar tomonidan shafqatsizlarcha undirilishini ko‘rsatadi.

Konflikt G‘o‘daloqning paydo bo‘lishi va uning agressiv, kibrli munosabatlari orqali tugiladi. Uning Ko‘chkinboy, Gulsanam va ularning qizi Oysanamning baxtiga g‘ov bo‘lishga intilishi asosiy tugundir. Kalit masalasidagi ziddiyat G‘o‘daloqning Parshagulga nisbatan zo‘ravonligini ochib beradi va uning xarakteridagi salbiy jihatlarni yorqin ko‘rsatadi. Avaz va Oysanam o‘rtasidagi sof muhabbat G‘o‘daloqning mulkka asoslangan munosabatlariga qarama-qarshi qo‘yiladi, bu esa asosiy konfliktni chuqurlashtiradi.

Sahnadagi Oysanamning navbatdagi qo‘shig‘i uning Avazga bo‘lgan samimiy va sof muhabbatini ifodalaydi.

“Suydim seni jarlılıǵım pariǵ emes, Maǵan qımbat hadal seniń júregiń, Ármansızban hámde maǵan ar emes, Seniń menen orınlansa tilegim” misralarida Oysanamning boylikdan ko‘ra qalb boyligini, insonning halolligini qadrlashini

ko'rsatadi. Bu esa asarning asosiy g'oyasiga – "suymaganga suykalma" – asos bo'ladi.

Do'shimning xabari va qizlarning munozarasi asarda voqealarni yanada rivojlantiradi. Do'shimning To'raning uyida "Qiz - qiz..." deb gaplashishayotgani haqidagi xabari Oysanamning taqdiri hal bo'layotganidan dalolat beradi. Qizlarning suhbatlari esa o'sha jamiyatdagi boy va kambag'al munosabatlariga turli qarashlarni aks ettiradi.

Gulzoda Avazga achinishi va "To're aga azap bergende say su'yegim sirqiradi..." deyishi uning insonparvarligini ko'rsatadi.

Qizlarning boylar haqidagi fikrlari ham asarda muhim o'rin egallaydi. "Mal bergennen so'n milleti de!", "Mal bergen adam ogizdey suzip keke beredi me eken?" kabi iboralar boylarning zo'ravonligi va axloqsizligini ko'rsatadi. Bu suhbat orqali muallif boylarning jamiyatdagi yomon obro'sini ta'kidlaydi.

Orolboyning Oysanamga uning 12 sigirga sotilganini aytishi aktning eng keskin nuqtalaridan biridir.

"Bir at quri da bolmadin. Bir jaqsı at bolsa bahası on segiz sıyırga deyin baradı. Seni bolsa on eki sıyırga sattı". Bu ibora Oysanamning inson sifatida emas, balki "mol" sifatida ko'rilayotganini, uning qadr-qimmati pul bilan o'lchanayotganini fosh etadi. Bu kambag'allarning zulmga qarshi ojizligini ko'rsatadi.

Oysanamning sahroda ochilgan gulga o'xshatib o'z monologini aytishi uning ichki iztiroblarini, orzularining poymol bo'lishidan qayg'urishini aks ettiradi.

"Saxrada ashılǵan bir qızıl gúl edim, Shaqam quwrap tamırımıdı zil aldı, Bir sum xabar júregimdi tuwlatıp, Ómirimde ayırılmas bir jara saldı". Bu metafora Oysanamning yoshligini, go'zalligini va endi bu go'zallikning qurbonlikka aylanayotganini ifodalaydi. "Zil oldi" iborasi uning umidlarining so'nayotganini ko'rsatadi.

Ko'chkinboyning 12 sigirga erishganidan quvonib, "Jáne eki qız tuwǵanında Kóshkinbay Qarın bayday mal aydar edi" deya xotiniga murojaat qilishi uning naqadar mol-mulkga ochko'z ekanligini fosh etadi. Uning "Qydaydıń qız bergenine shúkir" degan so'zlari esa qizini mol sifatida ko'rayotganini tasdiqlaydi.

Gulsanamning Ko'chkinboyga qarshi chiqib, "qızıńnıń teńi bolsa eken. Ol birinshiden qatın ústi, ekinshiden alpıs eki tamırın kóknar jayıp, kókleı tergen shekerparday ırjıyıp-ırjıyıp qalǵan birew, qalay gúldeı qızıńdı kóziń qıyadı?!" deyishi, uning onalik mehrini va o'z qizining baxtini o'ylashini ko'rsatadi. Ammo

uning ojizligi, Ko'chkinboyning zulmi ostida ekanligi ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Ko'chkinboyning Gulsanamni urishi, Oysanamning onasini himoya qilib turishi oiladagi og'ir vaziyatni, farzandning hatto ota-onasi tomonidan ham himoyaga muhtojligini ko'rsatadi.

Avazning kelishi Oysanam uchun umid nuriga aylanadi. Ularning dialogi yoshlarning sevgisi va kurashga bo'lgan azmini aks ettiradi.

“Bul jaslardıń ústinen kúliw qashangǵa shekem baradı eken?! Aysánem, adam dúnyǵa bir keledi. Sen maǵan shın kewlińdi bergen bolsań, men bul Godalaqtı el-jurtqa shermende etemen” degan Avazning bu so'zlari uning jasoratini, adolatga intilishini va sevganini himoya qilishga tayyor ekanligini ko'rsatadi. Uning G'o'daloqni “el-yurtga sharmanda qilish” niyati ham komediya janrining o'ziga xos xususiyatidir.

Aktning so'nggi sahnasi yigit-qizlarning birgalikda o'ynashi, qo'shiq aytishi bilan yakunlanadi. Bu sahnada, qiyinchiliklarga qaramay, yoshlarning umidvorligi, baxtga intilishi va adolat uchun kurashga tayyorligi ko'rsatiladi.

“Baland xor ostida Avaz: Tolqınlanıp eser samal, Tillerinen dur shashılar, Juwdırilasıp háykel túyme, Oyin etse jigit - qızlar”. Bu misralar yoshlarning birligini, ularning quvonch va shodlik bilan yashash istagini ifodalaydi.

Naqorat: “Juz mıń jılwa nazi menen, Tań qaldırǵan sazı menen, Hárkim oynar yarı menen, Jılwasına etip qumar”. Bu naqorat muhabbatning, erkinlikning, shaxsiy baxtning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Avaz va Oysanam: “Men shadlıqtıń sardarıman, Bir gozzaldıń qumarıman.

Ikkovi: Sol gózzalǵa janım pida, Máńgilikke dildarıman”.

Bu so'zlar ularning muhabbatining mustahkamligini, bir-biriga sodiqligini va kelajakdagi kurashga tayyorligini ko'rsatadi.

“Suymaganga suykalma” musiqali komediyasining ikkinchi akti asarning konfliktini yanada chuqurlashtirib, bosh qahramonlarning muhabbat yo'lidagi kurashini, boylikka ochko'zlik va zulmkorlikning shakllarini, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yorqin tasvirlar orqali ochib beradi. Aktning asosiy g'oyasi - insonning shaxsiy erkinligi, muhabbat huquqi uchun kurashish va zulmga qarshi bosh ko'tarishdir.

Ikkinchi aktning sahna tasviri ham birinchi akt singari asar muhitini to'laqonli aks ettiradi: “Tártipsız kógergen aǵashlar Shengel gúyesinir órmelep ketken bukler. Bir qaptalda Kóshkinbaydıń qorasınıń ishki kórinisi. Alısta aǵashlıq ósimliklerdıń sarǵısh tartqan kórinisi. Qıp-qızıl bolıp shaqası jerge tiygen jiydeler ekinshi qaptalda tur”. Bu tasvir Ko'chkinboy oilasining kambag'al turmushini,

ularning oddiy va sodda hayot kechirishini ko'rsatadi. Tabiat tasvirlari esa voqealar foni va qahramonlar kechinmalariga mos ravishda, ya'ni xira va qayg'uli ruhda berilgan. "Sarg'ish tortgan manzarasi" esa Oysanamning hayotidagi xiralik, umidlarining so'nishiga ishora bo'lishi mumkin.

Akt Oysanamning jiyda terib yurib aytgan qo'shig'i bilan boshlanadi. Bu qo'shiq uning Avazga bo'lgan cheksiz muhabbatini, intizorligini va uni kutishini aks ettiradi:

"Elpip esken keshtiñ salqın samalı, Jılwa menen terbetedi giyanı, Yar jolında Aysánemniñ qıyalı, Kutip turman bir kelseñshi Áwezim". Bu satrlar Oysanamning Avazga bo'lgan sog'inchini, har lahza uni kutayotganini ko'rsatadi. "Elpip esken keshtiñ salqın samalı" tasviri esa uning ichki holatiga mos, ya'ni g'amginlik va intizorlikni kuchaytiradi.

Qizlarning Oysanamni baxshiga taklif qilishi, uning "sirini anglab qolganliklari" haqidagi so'zlari Oysanamning Avazga bo'lgan muhabbatini qishloq ahlining bilishi va bu sevgining oshkor bo'lishi xavfi mavjudligini ko'rsatadi.

"Bizler menen bargıñ kelmeydi dağı . . . Sırıñdı ańlap qaldıq.

Aysánem: Way sorım. Ne ushın olay deysiz? Meniñ sizlerden jasırarlıq ne sırim bolsın. Aytpyaq hámmege ayqın emespe. Doslarım? Sizge kerek sazlı sáwbet men sorlıǵa baxıt guman". Bu so'zlar Oysanamning samimiyligini, o'z muhabbatini yashirishga urinmasligini ko'rsatadi.

"Doslarım? Sizge kerek sazlı sáwbet men sorlıǵa baxıt guman". Bu ibora uning o'ziga nisbatan achinishini, sevgisi tufayli baxtga erishishi qiyin kechishini oldindan sezishini aks ettiradi.

"Jubat kewliñdi biz benen, Ey qurdasjan shıq qayǵıdan, Kel qurdaslar saz eteyik, Ketsin bastan qayǵı duman". Qizlarning Oysananga hamdardligi va uni qayg'udan chiqarishga urinishi do'stlikning muhimligini ko'rsatadi.

Avazning qo'shig'i ham Oysanam singari samimiy muhabbatga to'la bo'lib, uning sevgilisi uchun har qanday qiyinchiliklarga tayyor ekanligini ko'rsatadi:

"Aysánem qulaq sal meniñ ahıma, Ah uraman sen túskende yadıma, Taqat ete almadım keldim baǵıña, Sallana dolana bir shıq jananım". Bu so'zlar Avazning muhabbatining kuchliligini, Oysanamni ko'rishga bo'lgan intizorligini ko'rsatadi. Uning kelishi Oysanam uchun umid va quvonch keltiradi.

"Tań atqanday túndi jarıp, Kórindi yarım kórindi, Saǵımı túsip basıma, Kórindi yarım kórindi". Bu Avazning Oysanamni ko'rishdan tug'ilgan quvonchini, uning hayotiga nur olib kelganligini aks ettiradi. "Sarob tushib boshimga" iborasi Avazning ham Oysanamni ko'rmasdan turib qiynalganligini ko'rsatadi.

Uchrashuv chogʻida Avazning Goʻdaloqning otasi Koʻchkinboy bilan qozixonada boʻlib oʻtgan voqealarni Oysanamga aytib berishi, ularning taqdirini hal qiluvchi lahza boʻladi.

Avazning Toʻrtkoʻldagi amakisiga borib, zavodda ishlash va erkin hayot kechirish rejalari yoshlarning kelajakka boʻlgan umidini va ozodlikka intilishini aks ettiradi. “Kisi esiginde kúni-túni qayrawdagi ǵazday sargayǵannan miynettiń ráhátin kórgen jaqsı boladı”. Bu ibora yigitning mehnatga boʻlgan hurmatini va ozodlikka intilishini koʻrsatadi.

Koʻchkinboyning Avazni koʻrib gʻazablanishi va uni quvib solishi, oilada Oysanamning taqdiri tufayli kelib chiqqan ziddiyatning kuchayishini koʻrsatadi.

Doʻshimning Oysanam qiyofasida Goʻdaloqni kutish sahnasida Goʻdaloqning ahmoqligi va ishonuvchanligi yaqqol koʻrsatiladi. Uning Oysanam deb Doʻshimni quchoqlab olishi kulgili vaziyatni keltirib chiqaradi.

“Doʻshim: Keldim jılwa naz benen, Sáwkele kiyip basıma, Iyilip tájim berip tur, Qalıńlıǵıń qasıńda”. Bu soʻzlar Goʻdaloqning naqadar sodda va yengil aldanishini koʻrsatadi.

Goʻdaloqning Doʻshimni quchoqlab olishi: “(Tashqaridan quchoqlamoqchi boʻladi. U quchoqlatmaydi, yana yurib ketadi) Doʻshim: Qoysañızshı ádira qalsın qıtıǵım keledi. Goʻdaloq: “Kúlse juwaptıń qonǵanı” degeni emes pe? Nazıńnan aaylanıp ǵana keteyin, (Quchoqlaydi.) Qalay tolısıp er jetip qalǵansız, taǵı mennen qashasız-aw. Betińdi mennen jasırma, meniń súyiklim bolasań... Tórde otırıp toqalǵa buyırıq etseń...”. Bu epizod Goʻdaloqning naqadar nafsiga qul boʻlganini, koʻr-koʻrona harakat qilishini koʻrsatadi. Uning koʻzlarining boylik bilan “koʻr boʻlgani” aks etadi.

“Doʻshim: (Birdan quchoqlab qoʻl uchiga koʻtarib yiqitadi, koʻksidan bosadi.) Jaslardıń jawızı, ǵúńgirt tumsıq haramlardıń jolbasshısı. Sen be súyilik súyetuǵın ǵarrı albaslı.

Oralbay: Haqıyqattan shıq. Qaytıp kelmes bolsın!”. Bu Goʻdaloqning adolatsizligi va zulmkorligi uchun jazolanishini, shu bilan birga yoshlarning unga qarshi kurashini koʻrsatadi. Doʻshimning soʻzlari Goʻdaloqning haqiqiy yuzini ochib beradi.

Goʻdaloqning masxara qilinganidan keyin Koʻchkinboy va butun qishloqdan oʻch olishga intilishi, uning naqadar yomon niyatli ekanligini koʻrsatadi.

“Qazıǵa taǵı baraman. Dúnya malımnıń jartısın sarp etsem de, sizlerden kegińdi alaman. Kóshkinbaydın úy-múlkin terekege saldıraman”. Bu soʻzlar Goʻdaloqning gʻazabini, oʻch olishga boʻlgan shafqatsiz istagini va mol-mulki orqali hamma narsani hal qilishga intilishini koʻrsatadi.

Do'shimning "Mallarga jolbaris shapti" deya Ko'chkinboyni chalg'itishi va Go'daloqning Oysanamni zo'rlik bilan olib ketishi, asardagi konfliktning eng keskin nuqtasi hisoblanadi.

Akt yakunida Avazning yuzlari yaralangan holda paydo bo'lishi, uning To'ra tomonidan kaltaklangani va o'z sevgisi uchun kurashganini ko'rsatadi. Xalqning Avazni qo'llab-quvvatlashi esa adolatning ustuvorligiga ishora qiladi.

Bu akt oxirida Xalqning qo'shig'i beriladi. "Aysanem bir aq kepter, Jatpasin hesh tar qápeste. Tappasañ jubayındı, Bolarsız siz ómir qáste!". Bu qo'shiq asarning asosiy g'oyasini - erkinlik, muhabbat va adolat uchun kurashishni yana bir bor ta'kidlaydi. Oysanamning "oq kaptar"ga qiyoslanishi uning begunohligini va ozodlikka intilishini ifodalaydi.

"Suymaganga suykalma" musiqali komediyasining uchinchi akti asarning syujet, xarakter va mavzu rivojlanishidagi kulminatsion nuqtasini tashkil etadi. Bu aktda asarning asosiy g'oyalari – sevgi va erkinlikning zalolat va zulm ustidan g'alabasi, shaxs erkinligining ijtimoiy-iqtisodiy cheklovlar qarshisidagi ahamiyati, shuningdek, jamiyatdagi adolat va adolatsizlik o'rtasidagi kurash - badiiy-estetik jihatdan chuqur ochib beriladi. Aktning kompozitsion qurilishi, konflikt dinamikasi va simvolik elementlardan foydalanishi uning ilmiy tahlil ob'yekti bo'lishiga asos bo'ladi.

Uchinchi aktning ochilishi umumiy ekspozitsiya vazifasini bajaradi, unda voqealar yuz beradigan makon va muhit tasviri beriladi: "Ulken háwliniñ qaptalı. Nárwan terektiñ astına tigilgen qara úydiñ dógeregi hár túrli terekler menen oralğan. Terek ústinen qalıñ toǵaylq kórinedi. Toǵaydan beri kól suwdıñ ortasında Tóktiñ tawı dumanlanıp kórinip turadı. Hávli menen, úydiñ aralıǵı ashıq, bul jerge qız-jigitler jıynalğan. Saxna ashılǵanda oyın-tamasha bolıp atır. Kesh máhel". Bu manzara, bir tomondan, an'anaviy qishloq to'yining tashqi ko'rinishini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, Go'daloqning hashamatli, ammo "qora uy"ining soyasini bildiradi. "Tumanlanib ko'rinib turadi" iborasi kelajak voqealarning noaniqligiga, ularda yashiringan sir va ziddiyatlarga ishora qiladi. Kechki o'yin-kulgi boshlanishda yuzaki bayram muhitini yaratadi, biroq tez orada yuzaga keladigan dialoglar bu tantananing majburiy va nohaq ekanligini fosh etadi.

"Oyan endi qız Minayim!" qo'shig'i bu bosqichda ramziy funksiyani bajaradi. Oysanamning ruhiy uyquda ekanligi, ya'ni uning Go'daloqning taziyoqlari ostida ezilgan holatini ifodalaydi. Parshagulning sahnaga kirishi va uning dialoglari aktning asosiy konflikt chiziqlarini chuqurlashtiradi. Uning shaxsi nafaqat dramatik qahramon, balki asar g'oyasini tashuvchi falsafiy obrazdir.

Avazning paydo bo'lishi va Parshagul bilan suhbatı syujetga yangı yo'nalish beradi. Avaz o'zining "talabgor" ekanligini, G'o'daloq (To'ra) uning "lochinini olib qochganini" aytadi. "Lochin" bu yerda Oysanamga nisbatan ramziy ma'noda ishlatilgan. Parshagul Avazning Oysanamning sevgilisi ekanligini tushunib, unga yordam berishga ahd qiladi: "Jaslarğa járdem beriw kerek. Táwekel...". Bu yerda Parshagulning o'zining, balki boshqa bechoraning ham dardiga sherik bo'lishi, uning insonparvarligini ko'rsatadi.

Oysanamning sahna chiqishi uning dardini, Avazga bo'lgan cheksiz muhabbatini yaqqol ko'rsatadi.

Saxnaga G'o'daloqning sodiq (yoki sodiq ko'ringan) yordamchisi Sheroz kirib keladi. Uning xatti-harakatlari G'o'daloqning fe'l-atvorini yanada to'ldiradi. U Parshagulning to'shak solib berishini o'ziga nisbatan noto'g'ri qabul qilishi uning axloqsizligini ko'rsatadi. U Parshagulga tegajoqlik qilmoqchi bo'lganda G'o'daloqning kelib qolishi vaziyatni keskin o'zgartiradi.

G'o'daloq Parshagulni "qirqgan" bahonasida haydab yuborishi uning shafqatsizligi va o'zboshimchaligini yana bir bor tasdiqlaydi: "Talaq xatımdı ber. Godalaq. Qazıdan alıp beremen. Házir kózim kórmesin. Joǵal, joǵal. Alpıs tuwardan da (Bu yerda sigir nazarada tutilgan – R.A.), sennen de keshtim..." Parshagul esa qizga yordam berishga ahd qilib chiqib ketadi.

Avazning Qalandar bo'lib kirishi va qochish rejasi ham musiqali dramada burulishli lahzalarni keltirib chiqaradi. Avaz qalandar kiyimida kirib keladi va G'o'daloqning eshigini tirnab, yo'lbarscha o'kiradi. Bu sahna dramatik keskinlikni oshiradi. Uning so'zlarida G'o'daloq va Sherozni qo'rqitish, ularni uydan chiqarib yuborish maqsadi bor.

Bu sahna G'o'daloqning ijtimoiy maqomi va kuchi qanchalik katta bo'lmasin, uning aqliy va ma'naviy jihatdan zaifligini ko'rsatadi. Sherozning o'ta ehtiyotkor va manfaatparast fe'l-atvori ham bu yerda yaqqol namoyon bo'ladi.

Oysanamning qo'shig'i nafaqat G'o'daloq va Sherozni uxlatishga xizmat qiladi, balki chuqur semantik yuklamaga ega. U Oysanamning ruhiy holatini, uning sevgi va erkinlikka intilishini ifodalaydi:

Aktning eng yorqin va satirik sahnalaridan biri Parshagulning Oysanam o'rniga qovoqni o'tkazib qo'yishi va G'o'daloqning bu "kelinchak" bilan o'zini ko'r-ko'rona xushnud etishi. Bu sahna grotesk elementlari bilan boyitilgan bo'lib, G'o'daloqning molparastligi va nafsga qul bo'lishi naqadar ahmoqona ekanligini ko'rsatadi.

"Súymegenge súykelme, seniń teńiń suw qabaq". Bu Parshagulning g'alabali nutqi bo'lib, asarning bosh mavzusini yanada kuchaytiradi. "Suv qovoq"

metaforasi G‘o‘daloqning ma’naviy puchligini, uning baxtsizligining sababi sevgi emas, balki mulk ekanligini ramziy ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, “Suymaganga suykalma” komediyasini chuqur ijtimoiy va falsafiy mazmun bilan yakunlanadi. Unda shaxs erkinligi, haqiqiy sevgi va adolatning zalolat ustidan g‘alabasi ko‘rsatiladi. Obrazlarning simbolik yuklamasi (Oysanam - gul, lochin; qovoq - soxta baxt), sahna detallarining ramziy ma’nolari (tumanli tog‘, qora uy), hamda xalq og‘zaki ijodi elementlaridan (maqollar, qo‘shiqlar, duolar) mahorat bilan foydalanilishi asarning badiiy-estetik qiymatini oshiradi. Asar komediya janrining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib, satira, grotesk va yumor orqali jamiyatdagi illatlarni fosh etadi va adolatli jamiyat g‘oyasini targ‘ib qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aymbetov Q. Qaraqalpaq sovet dramaturgiyası. Filologiya ilimlari kandidati bolıwǵa jazılǵan dissertaciya. – Tashkent: 1956.
2. Aymbetov Q. Qaraqalpaq sovet dramaturgiyasınıń tariyxınan ocherkler. – Nókis: Qaraqalpaq mámleketlik baspası, 1963.
3. Bayandiyev T. Karakalpakskiy teatr. – Tashkent: “Fan”, 1971.
4. Баяндиев Т. Современные проблемы театра (на примере Каракалпакского театра). -Ташкент: “ГИИУз”, 2008.
5. Bayandiyev T. San’at masalalari – teatrshunos nigohida. – Toshkent: “O‘zDSI” bosmaxonasi. 2009.
6. Bayandiyev T. Qoraqalpoq teatri tarixi. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2011.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIWSHİLÍĞİNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN’ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARIDA MUZIKA SABAQLARIDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

